

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BOXTAR SATRAPLIGI TARIXSHUNOSLIGI

Xamidov Odiljon Abduvoxidovich

Termiz davlat universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: odiljon-21@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9351-0437>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Boxtar satrapligi tarixshunosligi doirasida Turonning Ahamoniylar hukmronligi davridagi (miloddan avvalgi VI–IV asrlar) tarixiga oid xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. J. Naveh, Sh. Shaked, I. V. Pyankov, Yu. S. Kuxarchik, B. Yakobs, A. M. Malikov, K. Kleber, R. R. King, R. Bixler, S. Myuller, A. K. Nefyodkin va M. Ferrario kabi olimlarning ilmiy ishlari asosida Boxtar satrapligining shaharsozligi, hunarmandchiligi va me'morchilik madaniyatiga oid tarixiy hamda arxeologik ma'lumotlar yoritilgan. Tadqiqotda mazkur yo'nalishdagi tarixshunoslikning asosiy yondashuvlari va ilmiy qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Boxtar satrapligi, tarixshunoslik, Ahamoniylar davri, Turon, shaharsozlik, hunarmandchilik, me'morchilik, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar.

ИСТОРИОГРАФИЯ БАКТРИЙСКОЙ САТРАПИИ

Хамидов Одилжон Абдувохидович

Термезский государственный университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируются зарубежные и отечественные исследования, посвящённые историографии Бактрийской сатрапии и истории Турана в период зависимости от державы Ахеменидов (VI–IV вв. до н. э.). На основе научных трудов Дж. Наве, Ш. Шакеда, И. В. Пьянкова, Ю. С. Кухарчика, Б. Якобса, А. М. Маликова, К. Клебера, Р. Р. Кинга, Р. Бикслера, С. Мюллера, А. К. Нефёдкина и М. Феррарио рассмотрены исторические и археологические сведения, касающиеся градостроительства, ремесленного производства и архитектурной культуры Бактрийской сатрапии. Особое внимание уделено анализу основных историографических подходов к изучению данной проблемы.

Ключевые слова: Бактрийская сатрапия, историография, эпоха Ахеменидов, Туран, градостроительство, ремесленное производство, архитектура, зарубежные и отечественные исследования.

HISTORIOGRAPHY OF THE BACTRIAN SATRAPY

Xamidov Odiljon Abduvoxidovich

Termez State University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article analyzes foreign and domestic historiographical studies devoted to the Bactrian Satrapy and the history of Turan during the period of Achaemenid rule (6th–4th centuries BCE). Drawing on the scholarly works of J. Naveh, Sh. Shaked, I. V. Pyankov, Yu. S. Kukharchik, B. Jacobs, A. M. Malikov, K. Kleber, R. R. King, R. Bixler, S. Müller, A. K. Nefyodkin, and M. Ferrario, the study examines historical and archaeological evidence related to the urban development, craftsmanship, and architectural culture of the Bactrian Satrapy. The article also analyzes the principal historiographical approaches and scholarly perspectives on this subject.

Keywords: Bactrian Satrapy, historiography, Achaemenid period, Turan, urban development, craftsmanship, architecture, foreign and domestic studies.

Kirish. Markaziy Osiyo hududining qadimgi davr tarixi jahon tarixshunosligida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, miloddan avvalgi VI–IV asrlarda ushbu hududning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi bilan bog'liq jarayonlar alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Mazkur davrda Turon hududida shakllangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, xususan, Boxtar satrapligining tutgan o'rni tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar asosida keng o'rganib kelinmoqda.

Boxtarning miloddan avvalgi VI–IV asrlardagi tarixiga oid chet elda olib borilayotgan tadqiqotlar, avvalo, yozma manbalar asosida hududning siyosiy tarixini yoritishga qaratilgan. Shu bilan birga, Janubiy O'zbekiston, Shimoliy Afg'oniston va Tojikistonda amalga oshirilayotgan xalqaro arxeologik qazishmalar natijasida yangi yodgorliklar aniqlanmoqda. Bu izlanishlarda hududning moddiy madaniyati, jumladan, arxeologik yodgorliklar, me'morchilik, kulolchilik, toshga ishlov berish va boshqa sohalar atroflicha o'rganilmoqda.

Mazkur tadqiqotlar natijasida Boxtar satrapligining siyosiy va ma'muriy tuzilmalari, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda madaniy aloqalari haqidagi ilmiy tasavvurlar yanada boyimoqda. Shuningdek, yangi arxeologik ma'lumotlar moddiy madaniyatning turkumlanishi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga, mahalliy hamda tashqi madaniy

ta'sirlarning yo'nalishlarini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boxtar satrapligi tarixshunosligi doirasida Turonning Ahamoniylarga qaramlik davri (mil. avv. VI–IV asrlar)ga oid ilmiy tadqiqotlar ko'p yillardan buyon jahon tarixshunosligida muhim o'rin egallab kelmoqda. Mazkur masala bo'yicha olib borilgan izlanishlar asosan tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar hamda epigrafik materiallar tahliliga asoslanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida J. Naveh, Sh. Shaked, I. V. Pyankov, Yu. S. Kuxarchik, B. Yakobs, A. M. Malikov, K. Kleber, R. R. King, R. Bixler, S. Myuller, A. K. Nefyodkin, M. Ferrario kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida Boxtar satrapligining Ahamoniylar davlati tarkibidagi siyosiy-ma'muriy o'rni, boshqaruv tizimi, shuningdek, hududning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish xususiyatlari keng yoritilgan. Ayniqsa, mazkur olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda shaharsozlik, hunarmandchilik va me'morchilik madaniyatiga oid tarixiy hamda arxeologik ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Maqola umumqabul qilingan tarixiy metodlar — tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik va xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Natijalar va muhokama. 2012 yilda J. Naveh va Sh. Shaked tomonidan Baqtriya satrapi Axuramazdaning arxivi nashr etilishi Boxtar satrapligi tarixshunosligida alohida o'rin tutadi [24].

2013 yilda I. V. Pyankovning **“O'rta Osiyo va Yevrosiyo dashti qadimgi davrda”** nomli monografiyasi chop etilib, unda olimning rus va ingliz tillarida turli jurnallarda e'lon qilingan tadqiqotlari jamlangan. Asarda Turonning Ahamoniylarga qaramlik davridagi tarixiy geografiyasi muammolari, etnik va siyosiy tarixi, din tarixi, harbiy tarixi hamda qahramonlik dostonlarida tarixning aks etishi yozma manbalarni arxeologik, etnografik materiallar va qahramonlik dostonlari bilan qiyoslash asosida yoritilgan [7]. Monografiyada Ktesiy asarlaridagi Turon, Amudaryoning qadimgi o'zanlari hamda antik manbalar asosida Ahamoniylarga qaramlik davridagi Turon shaharlariga oid tadqiqotlar biz o'rganayotgan davr uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, I. V. Pyankov tadqiqotlarida yozma manbalarni arxeologiya, etnografiya, lingvistika, antropologiya va boshqa fanlar ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali tarixiy rekonstruksiya amalga oshirilgan. Ko'p yillar davomida uning tadqiqotlari milliy tarixshunosligimizda eng ko'p murojaat qilinadigan ilmiy adabiyotlar qatoridan o'rin olib kelmoqda.

Belaruslik tadqiqotchi Yu. S. Kuxarchik tomonidan qadimgi fors bitiklari asosida Ahamoniylar saltanatining sharqiy viloyatlari tarixini rekonstruksiya qilish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. U tomonidan Ahamoniylar saltanatining hududlari va chegaralari, xususan, Turondagi satrapliklar chegaralariga bag'ishlangan qator maqolalar e'lon qilingan. Olima **xšāça** va **dahyu** terminlari asosida Ahamoniylar siyosiy konsepsiyasini yoritishga harakat qiladi [2: 17-b.].

2017 yilda B. Yakobs, U. Henkelman va M. Stolper muharrirligida **“Administration in the Achaemenid Empire”** (**“Ahamoniylar saltanatida ma'muriyat”**) nomli to'plam chop etilgan bo'lib, unda saltanat va uning tarkibidagi mintaqalarda ma'muriy boshqaruv masalalari keng yoritilgan.

A. M. Malikov o'zining Samarqand tarixiga bag'ishlangan monografiyasida shahar konsepsiyasi muammosi, shaharning paydo bo'lishi, urbanizatsion jarayonlari, strukturasi, shuningdek, shaharning Ahamoniylarga qaramlik davridagi tarixi (bu masalaga alohida fasl ajratilgan), me'morchiligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy holatini mavjud adabiyotlar asosida keng tahlil qilgan [3].

2018 yil 25–27 oktyabr kunlari Amsterdam universiteti (Vrije Universiteit Amsterdam)da B. Dromard va K. Kleber tomonidan **“Ahamoniylar saltanatida ma'muriy xizmat va soliq ishi”** mavzusida xalqaro seminar tashkil etilgan bo'lib, uning materiallari K. Kleber muharrirligida chop etilgan [19]. To'plamga Ahamoniylar saltanatining turli mintaqalarida soliq tizimiga bag'ishlangan 12 ta maqola kiritilgan. Jumladan, kam sonli hujjatlar asosida Boxtar va Araxosiyadagi soliq tizimiga oid ma'lumotlar ham yoritilgan.

2021 yilda chop etilgan maqolada M. Minardi tomonidan Turonning, xususan, Xorazmning Ahamoniylarga qaramlik davridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi yoritilgan [20: 69–85-b.].

2021 yilda Bruno Yakobs (Bazel universiteti) va Robert Rollinger (Insbruk universiteti) muharrirligida **“Ahamoniylar Fors saltanati”** nomli ikki jildidan iborat (jami 1747 bet) fundamental tadqiqot chop etildi. Unda 83 nafar yetakchi olim tomonidan yozilgan 110 ta maqola jamlangan. Mazkur tadqiqot Ahamoniylar saltanati tarixining barcha asosiy yo'nalishlari va hududlarini qamrab olgan bo'lib, Turon tarixiga bag'ishlangan bo'limlarni ham o'z ichiga oladi. Asar M. A. Dandamayev (1928–2017) va D. B. Stronax (1931–2020) xotirasiga bag'ishlangan.

Tadqiqotning birinchi jildi besh bo'lim va jami 58 bobdan iborat. Unda Ahamoniylar Fors saltanati tarixiga kirish, geografiyasi va demografiyasi (geografiya, iqlim, demografiya, aholi, til va yozuv, onomastika), manbalari (yozma manbalar: Ahamoniylar bitiklari, elam, bobil, oromiy, Injil, finikiya, misr, lidiya, kariya va likiya manbalari; arxeologik manbalar: Eron, Midiya, Bobil, Ossuriya, Suriya, Kipr, Misr, Kichik Osiyo, Kavkaz, saltanatning shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy hududlari), shuningdek, tarixi (Midiya, Urartu, Ashshurbanipaldan Kambizgacha bo'lgan davr, Elam an'analari, Buyuk bosqin, Gaumatadan Aleksandrgacha bo'lgan davr, imperiya inqirozi hamda Parsa, Uja, Midiya, Bobil, Fors ko'rfazi, Arab dunyosi, Misr, Nubiya, Kirenaika, Levant, Kichik Osiyo, Kipr, O'rta Yer dengizi va Yunon dunyosiga oid hududlar) yoritilgan. Turon tarixiga bag'ishlangan qism K. Rapin tomonidan yozilgan [25: 311–325-b.].

2021 yil iyun oyida R. R. King tomonidan Chikago universitetida **“Satrap uyi va Ahamoniylar saltanatining tashkil topishi”** mavzusidagi dissertatsiya himoya qilindi. Unda saltanatdagi satrap instituti, xususan, Turonda ushbu institutning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari chuqur tahlil qilingan [18]. Dissertatsiyaning 6–7-boblari Turon va unga yondosh hududlardagi Boxtar (satrap Axuramazda) hamda Araxosiya (satrap Bakabadush) satrapliklari faoliyatiga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif satrap institutining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib, Ahamoniylar saltanatining qariyb 200 yil davomida hukmronlik qilganini **“satrap uyi”** instituti faoliyati bilan izohlaydi.

Dissertatsiyada boy arxeologik manbalar va yozma hujjatlar asosida Boxtar va Araxosiya satrap uylari, umuman

olganda, Boxtar satrapligi hamda unga yondosh Turon hududlarining mil. avv. IV asrdagi tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy holati tahlil qilingan. Mazkur dissertatsiya asosida tayyorlangan monografiya 2025 yil 17 iyunda nashrdan chiqarilishi rejalashtirilgan [17]. Monografiyada mil. avv. VI asrdan boshlab Ikkinchi Kurush, Kambiz va Birinchi Doro yurishlari natijasida Eron platosidan Sharqiy Yevropa, Turon va Shimoliy Afrikagacha yoyilgan Ahamoniylar saltanatining shakllanishi hamda markazdan uzoq hududlarni boshqarishda satraplarning faoliyati yoritilgan. R. King Ahamoniylar saltanatining chekka hududlarida satraplar va ularni qo'llab-quvvatlovchi **"satrap uylari"** tizimining uzoq masofalarda qanday faoliyat yuritganini tahlil qiladi. Muallif Misr, Anado'li, Mesopotamiya va Turondagi satrap uylari faoliyatini ko'rib chiqib, ushbu tizim saltanatning barqarorligi va taraqqiyotiga xizmat qilganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, aynan ana shu transmintaqaviy boshqaruv tizimi Ahamoniylar saltanatining qariyb 200 yil davomida mavjud bo'lishining asosiy omillaridan biri bo'lgan [17].

2021 yilda R. Bixler tomonidan Ikkinchi Kurushning vafotiga bag'ishlangan Gerodot matni (Hdt. 1.201–216) tahliliga oid tadqiqot e'lon qilindi. Unda Ikkinchi Kurushning Turonga yurishi hamda ko'chmanchi sak-massagetlar bilan bo'lgan jangda halok bo'lishi yoritilgan [8: 49–92-b.].

Nemis olimasi S. Myuller tomonidan Turonning Ahamoniylarga qaramlik davrining so'nggi bosqichi va Aleksandr istilosi davriga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Muallif Uchinchi Doro davrida Boxtar satrapi bo'lgan Bessning hayoti va faoliyatini yoritib, mil. avv. 330–329 yillarga oid voqealarga aniqlik kiritgan. Unda Uchinchi Doroning Turonga chekinishi boxtarlik va sug'dlik aholining qo'llab-quvvatlashiga umid qilgani ta'kidlangan [23: 141–144-b.; 22: 99–114-b.].

2022 yilda A. K. Nefyodkin **"Qadimgi forslarda harbiy ish"** nomli tadqiqotida Turon xalqlarining Ahamoniylargacha va Ahamoniylarga qaramlik davridagi harbiy ishi hamda harbiy san'atini yoritgan [5; 1: 149–158-b.]. Xususan, **"Zarar haqida afsona"** tahlili asosida Ahamoniylargacha bo'lgan Turon xalqlarining harbiy san'ati tadqiq qilingan. Muallif mazkur g'oyani bundan 25 yil avval chop etilgan maqolasida ilk bor ilgari surgan edi [4: 138–140-b.].

2023 yilda chop etilgan **Oksford Yaqin Sharq tarixining** 5-jildi **"Fors asri"** deb nomlanib, unda Fors saltanatining shimoli-sharqiy mintaqalari, ya'ni Turonning Boxtar, Sug'd, Marg'iyona, Xorazmiya, Areyya, Parfiya, saklar va dahalarga oid qismi italiyalik tarixchi M. Minardi tomonidan yozilgan. M. Minardi yozma va moddiy manbalar asosida Turonning Ahamoniylarga qaramlik davri tarixini yoritgan bo'lib, mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishdagi eng so'nggi ilmiy ishlardan biri hisoblanadi [21: 784–836-b.].

2024 yil 1–5 iyul kunlari Italiyaning **Neapol Sharq universitetida** bo'lib o'tgan **"Markaziy Osiyoda hokimiyat, iqtisodiyot va jamiyat: o'tmish va bugun"** mavzusidagi yozgi maktab o'qishlarida M. Minardi **"Ahamoniylar O'rta Osiyoda: yozma manbalar va arxeologiya"** mavzusidagi ma'ruzasi bilan ishtirok etgan [14].

2023–2024 yillarda italiyalik tadqiqotchi M. Ferrario tomonidan Turonning mil. avv. VI–IV asrlardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar e'lon qilindi. Jumladan, Ikkinchi Kurush va Birinchi Doro tomonidan Turonning ko'chmanchi sak-massaget qabilalari ustiga uyushtirilgan yurishlar, To'maris xotun va Skunxa voqealarining talqini, shuningdek, ko'chmanchilar orasida saltanat bilan hamkorlik nuqtayi nazaridan Skunxaning mag'lub etilishi yoritilgan [9: 61–115-b.; 10: 339–356-b.]. Boxtar satrapligidagi mavjud arxeologik yodgorliklar katalogi asosida qishloq manzilgohlarining joylashuv qonuniyatlari, ularning mahalliy oqsuyak oilalari tomonidan boshqarilgani hamda Ahamoniylar ushbu boshqaruv tizimidan samarali foydalanganiga oid yangi g'oyalar ilgari surilgan bo'lib, bu tadqiqot saltanatning Turonda olib borgan siyosatini namoyon etadi [11: 35–56-b.].

2023 yilda Bruno Yakobsga bag'ishlangan **"The Persian World and Beyond"** (**"Fors dunyosi va unga yondosh hududlar"**) nomli to'plam chop etildi [13]. To'plam M. Garrison va U. Henkelman muharrirligida nashr etilgan bo'lib, unda Ahamoniylar saltanati, shuningdek, u bilan bog'liq holda Turon tarixiga oid materiallar jamlangan. To'plamdagi M. Rut maqolasida Apadana rel'yeflaridagi midiyacha kiyimlar tadqiq qilinishi, ularning kelib chiqish ildizlari Turon bilan bog'langan [26: 75–148-b.]. Shuningdek, Apadana rel'yeflarida saltanat tarkibidagi satrapliklardan tuhfa olib kelayotgan elchilarning tasviri va tahlili keltirilgan. To'plamdagi M. Folmer tadqiqotida esa Buxtardan topilgan Axuramazda xatlaridagi oromiy tilining xususiyatlari o'rganilgan. Ushbu xatlar saltanatning boshqa hududlarida aniqlangan oromiy tilidagi manbalar — Arshama xatlari, Behistun bitiklarining oromiycha matni hamda Persepoldan topilgan xaoma bilan bog'liq yashil rangdagi idishlardagi bitiklar tili bilan qiyoslangan va natijada devonxona xizmati yuqori darajada tashkil etilgani ta'kidlangan [12: 327–356-b.].

2025 yilda U. Henkelman muharrirligida Behistun bitiklarining matni, tarjimasini va ilmiy tadqiqi chop etilishi rejalashtirilgan [27]. Behistun bitiklarida Turondagi satrapliklarning nomlari, tarixiy voqealari va tasvirlari keltirilgan bo'lib, mazkur nashrning chop etilishi mavzu manbashunosligini yanada boyitadi. Behistun bitiklarining topilishi, o'rganilishi hamda Frada va Skunxa kabi turonliklar tasvirlangan rel'yeflarga oid qismlar B. Yakobs tomonidan tadqiq etilgan [15; 16].

2025 yil 19–21 mart kunlari Moskvada bo'lib o'tgan **"Rossiya tarixida Sharq qadimiyatlari"** anjumanida S. Bolelovning **"Janubiy Orolbo'yi hududi qit'alararo madaniy aloqalari va savdo yo'llari tizimida (ilk temir davrida)"** hamda V. V. Mokrobodovning **"Mil. avv. I mingyillik o'rtalariga oid ayrim qurol-aslaha topilmalari haqida (Janubiy O'zbekiston yodgorliklari materiallari asosida)"** mavzusidagi ma'ruzalarida Turonning mil. avv. VI–IV asrlardagi savdo aloqalari va harbiy qurollari tarixi yoritilgan [6].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, yuqorida tahlil qilingan tadqiqotlarda keltirilgan arxeologik ma'lumotlar to'plami joylashuv, sug'orish va o'zlashtirish jarayonlariga oid xaritalash hamda tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Kulolchilik va shaharsozlikka bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlar esa davriylik va turkumlanishni aniqlashda qiyosiy asos yaratadi. Bu esa Boxtar satrapligining iqtisodiy-madaniy tizimini Turon va Qadimgi Sharq tarixining tarkibiy qismi sifatida yaxlit holda qayta tiklash imkoniyatlarini

kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Клейменов А. А. С опозданием о давно необходимом. Рецензия на книгу А. К. Нефёдкина «Военное дело древних персов». – М.: Эксмо; Яуза, 2022. – 272 с. (Лучшие войны в истории) // *Тульский научный вестник. Серия: История. Языкознание*. – 2024. – № 2 (18). – С. 149–158.
2. Кухарчик Ю. С. К вопросу о территории и границах государства Ахеменидов // *Древность: историческое знание и специфика источника*: XIII научная конференция, посвящённая памяти Э. А. Грантовского и Д. С. Раевского (30 сентября – 2 октября 2024 г.). Программа и аннотации докладов. – М.: Институт востоковедения РАН, 2024. – С. 17.
3. Маликов А. М. *История Самарканда (с древних времен до середины XIV века)*. – Ташкент: Paradigma, 2017. – 336 с.
4. Нефёдкин А. К. Военное дело иранцев по данным «Сказания о Зарере» // *Центральная Азия от Ахеменидов до Тимуридов: археология, история, этнология, культура: материалы международной научной конференции, посвящённой 100-летию со дня рождения А. М. Беленицкого (Санкт-Петербург, 2–5 ноября 2004 г.)* / отв. ред. В. П. Никоноров. – СПб.: ИИМК РАН, 2005. – С. 138–140.
5. Нефёдкин А. К. *Военное дело древних персов*. – М.: Эксмо; Яуза, 2022. – 272 с.
6. *Предварительная программа Общероссийской с международным участием XXI Ежегодной Московской конференции «Восточные древности в истории России. Эпоха Средневековья и её археологическое окружение»*. 19–21 марта 2025 г.
7. Пьянков И. В. *Средняя Азия и Евразийская степь в древности*. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2013. – 736 с.: ил. – (Исторические исследования).
8. Bichler R. Kyros' letzte Schlacht und sein Tod // Klinkott H., Luther A., Wiesehöfer J. (eds.). *Beiträge zur Geschichte und Kultur des alten Iran und benachbarter Gebiete*. – Stuttgart: Steiner, 2021. – P. 49–92.
9. Ferrario M. Before Skunḫa. A (Trans)Local Perspective on the Rise of the Teispid-Achaemenid Frontiers in Baktria, Sogdiana, and Beyond // *DABIR: Digital Archive of Brief Notes & Iran Review*. – 2023. – Vol. 10. – P. 61–115.
10. Ferrario M. Expanders of the Realm. Sacred Kingship and Empire in Early Achaemenid Central Asia // *Iran and the Caucasus*. – 2024. – Vol. 28. – P. 339–356.
11. Ferrario M. Oh, Heaven Is a Place on Earth: Imperial Paradigm and Local (Female) Agency in Late Achaemenid and Early Hellenistic Bactria: A Model of Paradise Politics // *Elite Women in Hellenistic History, Historiography, and Reception* / ed. by M. Mendoza, B. Antela-Bernárdez; with the collaboration of E. Almagor. – Turnhout: Brepols, 2024. – P. 35–56.
12. Folmer M. Characteristics of the Aramaic of the Akhvamazdā Letters from Ancient Bactria // Garrison M. B., Henkelman W. F. M. (eds.). *The Persian World and Beyond: Achaemenid and Arsacid Studies in Honor of Bruno Jacobs*. – Münster: Zaphon, 2023. – P. 327–356.
13. Garrison M. B., Henkelman W. F. M. (eds.). *The Persian World and Beyond: Achaemenid and Arsacid Studies in Honor of Bruno Jacobs*. (Melammu Workshops and Monographs, 6). – Münster: Zaphon, 2023. – 560 p.
14. IFEAC. CSACTI Summer School 2024: “Power, Economy, and Society in Central Asia: Past and Present” (Naples, 1–5 July 2024). – 2024. – DOI: 10.58079/10smk.
15. Jacobs B. Description of the Relief // Henkelman W. F. M. (ed.). *The Bisotūn Monument of Darius I, King of Pārsa*. Vol. 1: *Texts, Translations and Critical Notes*. – Leiden. – Forthcoming.
16. Jacobs B. History of Discovery and Research // Henkelman W. F. M. (ed.). *The Bisotūn Monument of Darius I, King of Pārsa*. Vol. 1: *Texts, Translations and Critical Notes*. – Leiden. – Forthcoming.
17. King R. *The House of the Satrap: The Making of the Ancient Persian Empire*. – 1st ed. – Oakland: University of California Press, 2025. – 339 p.
18. King R. R. *The House of the Satrap and the Making of the Achaemenid Persian Empire, 522–330 BCE*. PhD Dissertation. – University of Chicago, 2021.
19. Kleber K. (ed.). *Taxation in the Achaemenid Empire*. (Classica et Orientalia, 26). – Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2021. – 434 p.
20. Minardi M. The North-eastern Border of the Achaemenid Empire: Introducing the Chorasmian Late Iron Age // Lhuillier J., Wagner M. (eds.). *Archaeology of Central Asia During the First Millennium BC*. – Vienna: ÖAW Press, 2021. – P. 69–85.
21. Minardi M. The Northeastern Regions of the Persian Empire: Bactriana, Sogdiana, Margiana, Chorasmia, Aria, Parthia, the Sakas, and the Dahae // Radner K., Moeller N., Potts D. T. (eds.). *The Oxford History of the Ancient Near East*. Vol. V. – Oxford: Oxford University Press, 2023. – P. 784–836.
22. Müller S. Besas and Ariobarzanes: Trials and Tribulations regarding the Reception of the Identity, Deed, and Punishment of Darius' Assassins // Wulfram H. (ed.). *Der lateinische Alexanderroman des Iulius Valerius*. – Berlin: De Gruyter, 2023. – P. 99–114.
23. Müller S. Bessos (Artaxerxes V) // Heckel W., Heinrichs J., Müller S., Pownall F. (eds.). *Lexicon of Argead Makedonia*. – Berlin, 2020. – P. 141–144.
24. Naveh J., Shaked S. *The Khalili Collection. The Aramaic Documents from Bactria (Fourth Century B.C.E.)*. (Corpus Inscriptionum Iranicarum. Part I. Vol. 5. Texts 2). – London: The Khalili Family Trust, 2012.
25. Rapin C. The Empire's Northeast // Jacobs B., Rollinger R. (eds.). *A Companion to the Achaemenid Persian Empire*. Vols. 1–2. – Malden, MA: Wiley-Blackwell, 2021. – P. 311–325.
26. Root M. C. Medes and Iranian Identity in the Achaemenid Social Imaginary: The Persepolis Apadana // Garrison M. B., Henkelman W. F. M. (eds.). *The Persian World and Beyond: Achaemenid and Arsacid Studies in Honor of Bruno Jacobs*. – Münster: Zaphon, 2023. – P. 75–148.
27. Henkelman W. F. M. (ed.). *The Bisotūn Monument of Darius I, King of Pārsa*. Vol. 1: *Texts, Translations and Critical Notes*. – Leiden. – Forthcoming.